

So'z o'yini.

Har bir qatorda so'zning bitta harfni o'zgartirib yangi so'zlar hosil qilinadi. (Qolgan ustunlar uy vazifasiga berilishi mumkin)

yoz	kuz	qish	soy	bog'
soz	muz	qosh		
son	tuz	tosh		
kon	tuk	tom		

O'quvchilar yozgan so'zlarini o'qib berishadi.

Darslikdagi topshiriq bajariladi.

"Bir tushunchaga besh izoh" mashqi.

O'quvchilar to'rt kishilik kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga A4 formatdagi qo'l izi tushirilagan va kaftiga fasl nomi yozilgan varaq tarqatiladi. O'quvchilar o'ziga ajratilgan faslga besh izohni barmoqchalarga yozadi. Yozib bo'lgan guruh vakillari chiqib o'qib berishadi va varag'ini doskaga yopishtirishadi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Bugun darsda nimalarni bilib oldik?
- Darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

She'rni yod oling. O'zingiz tug'ilgan faslning rasmini chizing.

2-Mavzu: Fasllar nega almashadi?

Dars maqsadi:

- "Fasllar nega almashadi?" matnining mazmuni bilan tanishtirish;
- Fasllar almashinishi haqida ma'lumot berish;
- Tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilishini oshirish;
- Tinglab tushunish malakasini shakllantirish.

Tayanch so'zlar: fasllar, Quyosh, Yerning bir tomonga oggan holatda aylanishi.

Didaktik materiallar: globus, audiomatn.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: Topishmoqni o'qing va javobini toping.

Kelib ketar bir yilda,

To'rt ogayni har xilda. (yil fasllari)

II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

She'r zanjir usulida yoddan so'raladi. O'zi tug'ilgan fasl chizilgan rasmni ko'rsatishadi. Avval qish faslida tug'ilganlar o'rnidan turadi. Keyin bahor, yoz va kuz.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq.

"Men haqimda" mashqi.

Partadoshingizga o'zingiz tug'ilgan fasl haqida 1 ta gap tuzib bering.

Muhokama uchun savol:

- Partadoshingiz qaysi faslda tug'ilgan ekan?
- O'rtog'ingiz tuzgan gapni ayting.

Mavzuni tushuntirish.

Rasm asosida suhbat o'tkaziladi.

1. Rasmga e'tibor bering. Rasmdan nimalarni bilib olish mumkin?
2. O'ylab ko'ring, nima uchun yil fasllari almashinadi?

O'quvchilarning fikri tinglanadi va to'ldiriladi.

Matn ustida ishlash.

Darslikdagi QR-kod orqali "Fasllar nega almashadi" audiomatni tinglanadi.

FASLLAR NEGA ALMASHADI?

Qadim zamonlardan beri fasllar almashinuvi insonlarni hayratga solib kelgan. Nega yoz - issiq, qish - sovuq? Nega qishda tunlar uzoq? degan savollar kishilarni o'ylantirgan. Bilasizmi, Yer o'z o'qi atrofida aylanishidan kecha va kunduz almashinadi. Quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishiga esa bir yil vaqt ketadi. Shu davrda u o'z sirtini Quyoshga har xil vaziyatda "tutib" beradi.

Yer sharsimon shaklga ega bo'lib, uning yuzasiga Quyosh nuri bir tekisda tushmaydi. Yer bir tomonga og'gan holatda aylanishi sababli esa, fasllar almashinishi yuzaga keladi. Quyosh osmonda baland ko'tarilganda, uning nurlari Yerga to'g'ri tushadi. Shu sababli, uni kuchliroq qizdiradi va Yer yuzi issiq bo'ladi. Quyosh nurlari Yerga qiyalab tushganda, Yerni paypaslab o'tib ketgandek bo'ladi. Bunday holatda Yer yuzida sovuq turadi. Qahraton sovuq qishdan keyin, fasllar kelinchagi bahor keladi. Tabiat uyg'onadi. Atrof maysalar va nafis gullarga burkanadi. Bahordan keyin go'zal yoz keladi. Kunlar juda isiydi, bolalar suvdan chiqmay qolishadi. Biroq, hademay kuz yaqinlashib, uning ba'zi alomatlarini kuzatamiz... Kunlar qisqarib, tunlar uzayadi. Asta-sekin daraxtlarning bargi sarg'ayib, to'kila boshlaydi. Bu jarayon xazonrezgilik deb ataladi. Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi. Ayrim hayvonlar qishki uyquga tayyorgarlik ko'rishadi. Tabiat yana qorni kuta boshlaydi. Kumush qish kelib, o'z hukmini o'tkazadi. Shu tarzda fasllar almashinib, yillar o'tadi.

Tinglangan matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Nega fasllar almashinishi insonlarni hayratga solgan deb o'ylaysiz?
2. Yer o'z o'qi atrofida aylanishidan qanday hodisa yuz beradi?
3. Yer Quyosh atrofida bir marta aylanishidan-chi?
3. Nima uchun Quyosh nurlari Yerga bir tekisda tushmaydi?
4. Ayting-chi, Quyosh nurlari Yerga to'g'ri tushganda nima bo'ladi?
5. Quyosh nuri qiya holatda tushganda-chi?
6. Fasllar almashinishiga sabab nimada ekan? Fikringizni izohlang.
7. Xazonrezgilik nima?

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi.

Audiomatn qayta eshittiriladi va darslikda berilgan gaplarning o'rnini aniqlanadi va matn o'qiladi.

Mashq daftari bilan ishlash.

Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

"To'g'ri, noto'g'ri" mashqi.

Fikrlar mazmuni to'g'ri yoki noto'g'ri ekani aniqlanadi.

T/r	Fikrlar mazmuni	To'g'ri	Noto'g'ri
1.	Yer o'z o'qi atrofida aylanishidan kecha va kunduz almashinadi.	+	

2.	Yer sharsimon shaklga ega.	+	
3.	Quyosh nurlari Yerga qiyalab tushganda issiq bo'ladi.		+
4.	Xazonrezgilik bahorda bo'ladi.		+
5.	Quyosh osmonda baland ko'tarilganda, uning nurlari Yerga to'g'ri tushadi.	+	
6.	Kumush qishdan keyin yoz keladi.		+

“Bog‘lang” mashqi.

So‘zlarni ma’no jihatdan bog‘lab, so‘z birikmalari hosil qilinadi: *kumush qish, zumrad bahor, rang-barang yoz, oltin kuz.*

So‘z birikma bilan gap tuzib yoziladi. Yil fasllari va ularga tegishli oy nomlarini yoziladi. Darslikda berilgan rebuslar yechiladi. Qishda uyquga ketadigan hayvon va hasharotlar nomini bilib oladilar.

“Bu qiziq” rukni ostida berilgan ma’lumotlar o‘qiladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

*Fasllar haqida nimalar bilib oldingiz?
Sizga nima yangilik bo‘ldi?*

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Fasllar haqida qiziqarli ma’lumotlar toping. Sizga qaysi fasl ko‘proq yoqadi? Nima uchun? Fikringizni izohlab kichik matn yozing.